

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzu

A‘zamjon Oltmishevich DADAXONOV
katta o‘qituvchi,
Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrası,
Xalqaro Nordik universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston
mr.dadakhonov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-9681-2024

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzuning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Behbudiy faoliyati faqat milliy ma‘rifat va islohotlar bilan cheklanmay, balki Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari, jahon ilm-fani, ta‘lim tizimi, siyosiy va madaniy jarayonlarga oid keng qamrovli qarashlari bilan ajralib turadi. Maqolada adibning xorijiy matbuot bilan tanishligi, sayohatlari va xalqaro tajribani o‘z ijodiga singdirish jarayoni yoritiladi. Bir qator jadid gazetalari va “Oyina” jurnalida e‘lon qilingan maqolalari misolida Behbudiyning G‘arb taraqqiyoti, ta‘lim va ilm-fan masalalariga tanqidiy va tahliliy munosabati ochib beriladi. Shuningdek, uning turkiy xalqlar birligi, milliy va xalqaro taraqqiyot uyg‘unligi, ko‘r-ko‘rona taqlidga qarshi qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Behbudiy merosining nafaqat tarixiy, balki bugungi globallashuv sharoitida jurnalistika, ta‘lim va madaniy muloqot uchun ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Maqola Behbudiy ijodini xalqaro kontekstda baholashga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, xalqaro mavzu, Sharq va G‘arb, ta‘lim islohoti, turkiy birlik, publitsistika

Международная тематика в творчестве Махмудходжи Бехбуди

Азамжон Олтамишевич ДАДАХОНОВ
старший преподаватель,
кафедра социальных наук и журналистики,
Международный Нордический университет,

Аннотация

В данной статье на основе научно-теоретических и исторических источников анализируется место международной тематики в творчестве одного из ведущих представителей туркестанского джадидского движения — Махмудходжи Бехбуди. Деятельность Бехбуди не ограничивалась исключительно национальным просвещением и реформаторскими идеями, а отличалась широким кругозором, охватывающим взаимодействие цивилизаций Востока и Запада, мировую науку, систему образования, а также политические и культурные процессы. В статье освещаются его знакомство с зарубежной прессой, путешествия и процесс освоения международного опыта в творческой практике. На примере публикаций в ряде джадидских газет и журнале «Ойна» раскрывается критическое и аналитическое отношение Бехбуди к вопросам западного прогресса, образования и науки. Кроме того, анализируются его взгляды на единство тюркских народов, гармонию национального и международного развития, а также критика слепого подражания. Результаты исследования показывают актуальность наследия Бехбуди не только в историческом плане, но и в условиях современной глобализации для журналистики, образования и межкультурного диалога. Статья направлена на осмысление творчества Бехбуди в международном контексте.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, международная тематика, Восток и Запад, реформа образования, тюркское единство, публицистика

The International Theme in the Works of Mahmudxo‘ja Behbudiy

Azamjon Oltmishevich DADAKHONOV
Senior teacher,
Department of Social Sciences and Journalism,
International Nordic University,
Tashkent, Uzbekistan
mr.dadakhonov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-9681-2024

Abstract

This article analyzes the role of international themes in the works of Mahmudkhoja Behbudi, one of the leading figures of the Turkestan Jadid movement, based on scientific-theoretical and historical sources. Behbudi's activities were not limited to national enlightenment and reform ideas; rather, they were distinguished by a broad intellectual outlook encompassing the interaction between Eastern and Western civilizations, world science, educational systems, as well as political and cultural processes. The article highlights his engagement with foreign press, travels, and the incorporation of international experience into his creative work. Through examples from his publications in various Jadid newspapers and the journal *Oyina*, Behbudi's critical and analytical approach to Western progress, education, and science is examined. In addition, his views on the unity of Turkic peoples, the harmony between national and international development, and his criticism of blind imitation are analyzed. The findings demonstrate that Behbudi's legacy remains relevant not only historically but also in the context of contemporary globalization for journalism, education, and intercultural communication. The article aims to assess Behbudi's work within an international context.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, international themes, East and West, educational reform, Turkic unity, journalism

Kirish

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, ilk dramaturg, noshir va

jurnalist [2] sifatida tarixga kirgan. Uning faoliyati nafaqat o'z davrining ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotiga, balki xalqaro maydonga ham alohida ta'sir ko'rsatgan. Behbudiy ijodi, ayniqsa, o'zbek xalqi va Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga doir yangi g'oyalar va fikrlar bilan boyitilgan. U o'z faoliyatida nafaqat milliy, balki xalqaro masalalarni ham yoritishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada ko'pqirrali adib ijodidagi muhim jihatlardan biri - xalqaro mavzularni qalamga olish masaladi tahlil etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi XX asr boshlaridan boshlab turli davrlarda adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va jurnalistika tadqiqotlarining muhim obyektiga aylangan. Jadidchilik harakati, uning g'oyaviy manbalari va yetakchi namoyandalari masalasi Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov asarlarida dastlabki ilmiy-falsafiy talqinini topgan. Mustaqillik davrida esa Behbudiy merosini qayta baholash, uni milliy va mintaqaviy uyg'onish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Zamonaviy behbudiyshunoslikda Z.Abdurashidovning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Olimning asarlarida Behbudiyning publitsistik faoliyati, xorijiy matbuot bilan aloqalari, sayohatlari va xalqaro tajribani o'zlashtirish jarayoni manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, B. Qosimov, N. Karimov, S. Mirvaliyev, H. Boltaboyev kabi olimlar jadid adabiyoti va matbuotining umumiy konsepsiyasini tahlil qilish jarayonida Behbudiy ijodiga alohida to'xtalganlar.

Xalqaro mavzu masalasi esa ko'proq jadidchilikning ma'rifiy va modernizatsion mohiyati doirasida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlarda Behbudiyning Sharq va G'arb sivilizatsiyalari haqidagi qarashlari, ta'lim va ilm-fan borasidagi fikrlari, turkiy xalqlar birligi g'oyasi umumiy tarzda yoritilgan bo'lsa-da, uning publitsistikasi va matbuotdagi chiqishlarida xalqaro mavzuning tizimli tahlili yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy, manbashunoslik va zamonaviy gumanitar fanlar metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo, tarixiy metod asosida Mahmudxo'ja Behbudiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, Turkistondagi jadidchilik harakatining shakllanishi va rivoji xalqaro jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv Behbudiyning xalqaro mavzularga murojaat etish sabablarini aniqlash imkonini berdi.

Kontent-tahlil metodi yordamida "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali hamda jadid matbuotida chop etilgan Behbudiy maqolalaridagi xalqaro mavzuga oid materiallar tizimli ravishda o'rganildi. Mazkur tahlil orqali Sharq va G'arb, ta'lim, ilm-fan, milliy va xalqaro taraqqiyot, turkiy birlik kabi tushunchalarning qanday kontekstda va qanday maqsadda qo'llangani aniqlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy metod Behbudiyning qarashlarini zamondosh jadidlar, xususan, Ismoil Gaspirinskiy va boshqa ma'rifatparvarlarning fikrlari bilan solishtirishda qo'llanildi. Bu usul orqali Behbudiyning xalqaro masalalarga yondashuvidagi o'ziga xoslik va yangiliklar ochib berildi. Shuningdek, deskriptiv va interpretativ metodlar yordamida adib matnlarining g'oyaviy mazmuni izohlandi va umumlashtirildi. Tadqiqotda foydalanilgan ushbu metodlar Behbudiy ijodini xalqaro kontekstda har tomonlama tahlil qilishga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili

Xalqaro mavzularni qalamga olmoqchi bo'lgan har qanday ijodkor (jurnalist) dastlab xorijda uzatiladigan yangiliklar va xorij matbuoti bilan yaqindan tanish bo'lishi, ularni o'z asl tilida kuzatib borishi talab etiladi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan [1].

Manbalar shuni ko'rsatadiki, Behbudiyning publitsistikadagi ilk ijod mahsulining yozilishida ham bevosita xalqaro mavzudagi masala muhim o'rinni egallagan. Olim Z.Abdurashidovning qayd etishicha, Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili "Turkiston viloyatining gazetasi"dan boshlangan. Unda Gaspirinskiyning "Tarjumon" gazetasida e'lon qilgan maqolalari izidan borib, Behbudiy turkistonliklarga musulmonlarga nima sababdan rus askarlariga va

davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntirib, kichik bir maqola e'lon qiladi [1].

Xalqaro xabar va sharhlarning yuzaga kelishi va rivojlanishida jurnalistika paydo bo'lishidan oldingi davrlardagi sayyohlar, savdogarlar, elchilarning kundaliklari, sayohatnomalari o'ziga xos "xamirturush" bo'lgan. Chunki aynan shunday asarlarda dastlab boshqa davlatlardagi ahvol, madaniyat, davlat tuzumi kabilar haqida batafsil va bevosita hayotiy tajribalar bilan tasdqilangan ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqishi haqida yozishar ekan, bu sayohat adib dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o'zgartirib yuborganini o'rinli ta'kidlashadi [1]. Ayni shu sayohati davomida adib Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatadi, bu islohotlarda yetkachi o'rin tutgan shaxslar bilan muloqotda bo'ladi.

Shuningdek, adibning arab mamlakatlariga, Rossiyaning bir qator hududlariga qilgan sayohatlari ham uning xalqaro mavzuni tahlil qilishida muhim tajribalar to'plashiga sabab bo'lgan. Natijada, nafaqat Behbudiyning turli nashrlarda e'lon qilgan chiqishlarida, hattoki darsliklari va sahna asarlarida va ayniqsa, adib o'z tashabbusi bilan chop ettirgan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalida ham xalqaro mavzu muayyan o'rin tutadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, "Oyina" jurnalida millat va uning haq-ququqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalari bilan bir qatorda, ***dunyo ahvoliga doir*** (*Ta'kid bizniki - A.D.*) qiziqarli maqolalar, bahslar ham berib borilgani [6]. ushbu fikrlarimizga dalil bo'la oladi.

Behbudiy ijodida xalqaro mavzularni qalamga olishning ahamiyati bir necha yo'nalishda ko'rinadi:

1. Sharq va G'arb o'rtasidagi munosabatlar. Behbudiy, jadidchilik harakatining peshqadamlari kabi, G'arbdagi ilm-fan va madaniyatning ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Uning asarlarida G'arb va Islom dunyosi o'rtasidagi tafovutlar va ularning o'zaro munosabatlari ko'rib chiqilgan. Behbudiy G'arbnii ilm-fan va

texnologiya rivojlanishi bilan bog'liq taraqqiyot namunasi sifatida tan olish bilan birga, Islom madaniyatining o'ziga xosligini ham himoya qilgan. U o'z asarlarida G'arbning taraqqiyotidan foydalangan holda, Islom dunyosining yuksalishi uchun kerakli chora-tadbirlarni taklif etgan. Masalan, "Samarqand" gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida chop etilgan "Ehtiyoji millat" sarlavhali maqolasida garchi o'z yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish haqida gap borsa ham, Yevropa va, xususan, Rossiya ta'lim tizimi haqida yaxshi fikrlarni ifodalaydi:

"Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga' poymol bo'lur" [5].

Ushbu jumlar bilan boshlangan maqola chin ma'noda yevropacha ta'lim tizimini o'zimizda ham tatbiq etish orqali davlat va millatni rivojlantirish, buning foydali natijalari borasida aniq dalillar bilan asoslangan yo'riqnoma singari yozilgan.

2. Milliy va xalqaro taraqqiyot masalalari. Behbudiyning ijodida Turkistondagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal etish uchun xalqaro tajriba va g'oyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Uning yozgan maqolalari va sahna asari milliy o'zlikni saqlagan holda, xalqning taraqqiyoti uchun xalqaro tajriba va tamoyillarni o'zlashtirish zarurligini ko'rsatgan. Behbudiyning fikriga ko'ra, faqat milliy emas, balki xalqaro madaniyati o'zaro aloqalari orqali Turkiston ham taraqqiyotga erishishi mumkin edi. Masalan, "Samarqand" gazetasining **1913-yil 30-iyulda chiqqan 31-sonida** Mahmudxo'ja Behbudxo'ja **imzosi bilan e'lon qilingan** "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" sarlavhali maqolasida yoshlar ta'limiga e'tibor qaratish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab beradi. Isbot tariqasida rus, armani, yahudiy hamda Kavkaz, Qrim va Qozondagi musulmon boylarining o'z millatlari yoshlari ilm olishi uchun qiladigan xayr-ehsonlarini zikr etadi [3].

3. Turkiy xalqlarining birligi. Mahmudxo'ja Behbudi o'z asarlarida turkiy xalqlarning birligi masalasini ham ko'tarib, bu borada milliy va xalqaro

hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlagan. U turkiy xalqlarni madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarida hamkorlik qilishga chaqirgan. Behbudiy turkiy xalqlar o'rtasidagi til, madaniyat va tarixiy o'xshashliklarni ta'kidlab, ular orasida birlashuvni qo'llab-quvvatlagan. Jumladan, "Hurriyat" gazetasining 1918-yil, 26-yanvar sonida e'lon qilingan "Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat" nomli materialida aytilgan fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors - xullas, Turkiston, Qozog'iston, Turkmanistondagi barcha musulmonlar, yahudiy va xristianlarni birlikka chorlab yozilgan ushbu asarda keltirilgan quyidagi jumladan ham adibning xalqaro bilimlar borasida chuqur bilimga egaligi ayon bo'ladi: *"Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak uyatdur, ahmoqliqdur"* [4].

4. Zaruriyat va jahon ilm-fanining ahamiyati. Behbudiy o'z asarlarida ilm-fan va ta'limning xalqaro ahamiyatini alohida yoritgan. U ilm-fan taraqqiyoti jahonning barcha burchaklarida sodir bo'layotgan jarayon ekanligini tushunib, xalqimizning ham jahon ilm-faniga integratsiyasi zarurligini tushuntirgan. Uning ta'limni yangilash, milliy o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish borasidagi g'oyalari jahon miqyosidagi ta'lim tizimining yaxshilanishiga qo'shilgan hissa sifatida baholash mumkin. Mazkur qarashlar adibning deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarga bag'ishlangan maqolalarida, jumladan, "Ehtiyoji millat" ("Samarqand" gazetasi, 1913-yil 12-iyul soni), "Muhtaram yoshlarg'a murojaat" ("Oyina" j., 1914-yil, 41-son, 970 – 972-betlar), "Oh, bonkalar bizni barbod etdi" ("Oyina" j., 1914-yil, 19-son, 342 – 344-betlar) kabilarda mohirona ifodalangan.

5. Ko'r-ko'rona taqlidga qarshi tanqidiy munosabat. Behbudiy G'arbni ideal jamiyat sifatida ko'rsatmaydi. Yevropa yutuqlari bilan birga kamchiliklarini ham qayd etib boradi. Turkey xalqlar Yevropa xalqlaridagi yutuqlarni

o'zlashtirishdan ko'ra, ulardagi nuqsonli jihatlarni tezroq o'zlashtirayotganlaridan o'kinadi. Adib "Sayohat xotiralari"da Istanbulga sayyohati haqida yozar ekan quyidagi fikrni ilgari suradi:

"Bechora musulmonlar besh yuz yildan beri Ovro'poda o'lturub, Ovro'po ilm va hunarindan keraginch a hissa olmabdurlar. Bul har yerda shundaydir. Bu kung'acha bir chaqirim temir yo'li bino qilmoqg'a butun musulmonlarning ilm va iqtidori yo'qdur. Ammo popiros, ichkulik va buzuqlik tarafig'a bor kuchimiz ila a'lo holda tarmasharmiz" [6].

Bu yondashuv Behbudiyni ko'r-ko'rona g'arblashtirish tarafdorlaridan keskin farqlaydi. Uningcha, modernizatsiya tashqi shakllarda emas, balki tafakkur va jamiyat boshqaruvidan tortib har bir shaxs yashash tarzida bo'lishi kerak.

Behbudiy o'z maqolalarida xalqaro masalalarga, xususan, Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarga oid turli mavzularni yoritgan. U o'z davrining eng ilg'or fikrlarini asarlarida aks ettirib, yurtning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida chuqur fikrlar bildirgan. Behbudiyning jahon miqyosidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar haqida yozgan maqolalari shunchaki milliy emas, balki xalqaro ahamiyatga ham ega bo'lgan.

Behbudiyning asarlari faqat o'zbek xalqi uchun emas, balki turkiy va musulmon dunyosi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning G'arbn i o'rganish va Islom dunyosini modernizatsiya qilish g'oyalari butun musulmon olamida keng tarqaldi. Behbudiy o'z davrida G'arbn i ilmiy-madaniy yutuqlarini jahon miqyosida tan olib, ularni Islom dunyosining manfaatlariga moslashtirishga intildi. Bu g'oya o'zbek va Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzularning bu darajada muhim o'rin tutishi uning ilmiy, ijtimoiy va madaniy tafakkurining kengligini ko'rsatadi. U o'z asarlarida nafaqat o'zbek xalqining, balki butun musulmon va turkiy xalqlarning taraqqiyoti va yuksalishini xohlagan. Behbudiy o'z vaqtida ko'plab xalqaro masalalarni yoritgan va bu borada yirik g'oyalar bilan chiqqan. Uning ijodi bugungi kunda ham xalqaro aloqalar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro

anglashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, bugungi xalqaro jurnalistlar va sharhlovchilar uchun ham kasbiy kamolotga erishuvlarida yaxshi bilimlar beradi.

Shu o'rinda xalqaro kontekstda Behbudiy merosining ahamiyati borasida alohida to'xtalib o'tish joiz. Mahmudxo'ja Behbudiy faqat milliy islohotlar yetakchisi bo'lmagan. Adibning dunyoqarashi global darajada keng edi. U global darajadagi bilim almashinuvini qadrlaydi, zamonaviy ta'lim, fan va madaniyatning xalq taraqqiyotiga ta'sirini jahondagi ilg'or tajribalar bilan solishtiradi. Jurnal va gazetalar orqali global voqealarni tahlil qiladi. Bu o'sha davr Turkistonida jahon yangiliklari, siyosat, fan va madaniyat masalalarini ommaga yetkazishga xizmat qilgan. Milliy va xalqaro fikrlarni uyg'unlashtirgan – milliy qadriyatlarni saqlagan holda, global tafakkur, siyosiy va ma'rifiy tendensiyalar bilan bog'lashga harakat qilgan.

Xulosa

Umuman olganda, XXI asrda Behbudiy merosi bugungi davr uchun ham qimmatli saboqlar beradi:

1. Ta'limni zamonaviylashtirish masalasida Behbudiy ta'lim tizimida fan va ilmga katta urg'u bergan, bu bugungi kunda ham xalqaro standartlar bilan hamqadam bo'lishni talab qiladi.
2. Jurnalistika va axborot almashuvi sohasida Behbudiy gazetalar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirganidek, bugungi kunda axborot texnologiyalari yordamida xalqaro fikr almashinuvini rivojlantirish zarur.
3. Millatni global maydonda tanitish borasida ham adibning muhim rolini ta'kidlash zarur. Behbudiy o'z davrida Turkistonni dunyo sahnasiga olib chiqishga intilgan bo'lsa, bugun ham milliy madaniyatni global miqyosda ilgari surish muhim.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy inson tafakkurining va jamiyat taraqqiyotining xalqaro kontekstini chuqur anglagan ziyolilardan biri bo'ldi. Uning yozuvchilik, jurnalistika va ta'lim sohasidagi faoliyati milliy taraqqiyot bilan bir qatorda global fikrlar bilan bog'liq bo'ldi. Bugungi kunda u yaratgan merosni o'rganish orqali biz

nafaqat o'tmishdagi jamiyatni, balki zamonaviy global dinamikani ham yaxshiroq anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy: risola. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 156 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. To'plovchi, so'zboshi va izohlar: B.Qosimov. - 2-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: Ma'naviyat, 1999. - 280 b.
3. Behbudiy M. (1913). Millatlar qanday taraqqiy etarlar?, "Samarqand" gazetasi, 1913-yil, 30-iyul soni.
4. Behbudiy M (1918). Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat, *Samarqand*, «Hurriyat» gazetasi, 1918-yil, 26-yanvar soni.
5. Behbudiy M. (1913). Ehtiyoji millat, "Samarqand" gazetasi, 1913-yil, 12-iyul soni.
6. Behbudiy M. Sayohat xotiralari. "Oyina" jurnali, 1914-yil, 40-son.